BUXORO VILOYATI QOROVULBOZOR TUMANI HOKIMINING QARORI

200900, Qorovulbozor tumani, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 1-uy. Tel: (365) 364-14-09, e-mail: qbozorhokimiyat1@inbox.uz, qorovulbozor.t@exat.uz

2021 - yil 23 - dekabr 126-2-38-Q/21 Qorovulbozor tuman hokimligi

Qorovulbozor tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati Qoidalari" talablariga asosan Qorovulbozor tumani hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik-ogohlantirish va og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qorovulbozor tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzili **ilovaga** asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo'l belgilarini o'rnatishga ruxsat berilsin.

2. Qorovulbozor tumani Ichki ishlar bo'limi (F.Vafayev), tuman ichki ishlar

bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (Sh.Shodmonov) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (M.G‘ofurov) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Qorovulbozor tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xoliqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ostonov**

Қоровулбозор туман ҳокимининг
2021 йил 23 декабрдаги
126-2-38-Q/21-сон қарорига
1-илова

Qorovulbozor tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzillari

RO'YXATI

№	Yo'l belgisi o'rnatilgan manzil nomi	Yo'l belgisining nomi
1.	Qorovulbozor tumani markaziy yo’li “Turonbank” bank xizmatlari ofisi binosi oldida	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
2.	Qorovulbozor tumani markaziy yo’li dehqon bozori yonidagi avtoturargoh oldida	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
3.	Qorovulbozor tumani markaziy yo’li tuman hokimligi moliya bo’limi binosi oldida	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
4.	Qorovulbozor tumani markaziy yo’li tuman kasb-hunar maktabi binosi oldida	4.6.2 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lakning oxiri